Xalqaro fanlarni implementatsiya qilishning o'quv jarayonidagi texnologiyalari	1794
Yusupova Xabiba Iriskulovna	
Nutqiy (so'zlash) kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari	1797
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Valijonova Durdonaxon Sherzodjon qizi	
Использование игровых технологий в образовательном процессе подготовки старших дошкольников к школьному обучению	1799
Маханова Малика Жумабек кизи	
Организация дошкольного образования в условиях цифровизации общества в ДОО	1803
Умурзакова Умида Наримановна	
Формирование механизмов нравственного воспитания детей дошкольного возраста на основе национальных традиций и ценностей	1807
Хуррамова Гузал Равшановна	
Globalashuv sharoitida yoshlarda milliy g'urur va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari	1810
Norov Nodir Jo'rayevich	
Enigmatik matnlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi	1814
Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1818
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ta'limda innovatsion jarayonlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ahamiyati	1823
Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna	
Bolalarning tarbiyasiga zamonaviy multfilmlar ta'siri	1826
Choriyeva Surayyo Choriyevna, To'xtayeva Muslima Allayor qizi	
Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash hamda baynalminalchilik tizimini takomillashtirish	1829
Nasiba Djumanioyozova Bekmamatovna	
Pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni	1833
Keldiyorov Manzura G'aybullayevna, Raxmatova Gulruh Hamroyevna	
Boshlang'ich sinf darsligida qo'llangan xalq og'zaki ijodi namunalari tadqiqiga doir	1836
D. Teshaboyev, Z. Boymatova	
Eshitishda nuqsoni bor bo'lgan o'quvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish samaradorligi	1839
Boymirzayeva Madina Ilhomjon qizi	
Elektrodinamika bo'limini o'qitishda zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarning ilmiy-metodik tahlili	1842
Abdullayev Botirxon Ismoilovich	
Bolalar adabiyoti ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish masalasida tushunchalar tahlili pedagogik muammo sifatida	1846
Abdullayeva Moxidilxon Dilshodbek qizi	
Biologiya ta'limida konseptual modelni qo'llash va uning samaradorligini baholash	1850
Abdurasulova Gulruh Xabibullaevna	
Dizatriyali bolalarning ovoz va nafasni rivojlanganlik holatini eksperimental o'rganish natijalari	1854
Abidova Nilufar Zakirovna, Shaxodjayeva Nilufar Raimjonovna	
Kasbiy etika va deontologiya: bo'lajak shifokorlar tarbiyasida innovatsion yondashuvlar	1857
Ahmedova Nigora Dadahonovna	
Tabiiy fanlar va matematika integratsiyasi orqali ekologik mas'uliyatni shakllantirish metodikasi	1862
Ashurova Gulhayo Nurali qizi, Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi	
Inklyuziv ta'lim tizimida imkoniyat cheklangan o'quvchilarni o'qitishga lingvopedagogik yondashuv	1865
Asranbayeva Munojot	
Chet tili mashg'ulotlarida yozma nutqni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari	1868
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	



Ekologik muhit asosida bolalar psixo-fiziologik rivojlanish jarayonini takomillashtirish.....	1872
Axmedjonova Nozigul Zaripovna	
O'smir yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish	1876
Baxrillayeva Moxichexra Raxmatillayevna	
Xalqaro baholash dasturi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlari	1880
Bayzakova Malika	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	1884
Berdiyeva Muborak Baxtiyorovna, Saydinova Barno	
O'yin texnologiyalari asosida matematik bilimlarni takomillashtirish va uning ahamiyati.....	1889
Botirova M. B.	
Talabalar orasida ko'p uchraydigan akademik muvaffaqiyatdan qo'rqish va uning yechimlari.....	1892
Celal Aligan	
Kasbiy faoliyat xavfsizligiga tayyorgarlik izlanishlari.....	1896
D. G'. Akramova	
Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish	1899
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li	
Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'siri talqini	1905
Dostanova Kamola Alisher qizi	
Dual ta'lim jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar	1909
Egamberdiyeva Yulduz Urinboevna	
The Sociolinguistic Effectiveness of Using Authentic Texts in the Training of Prospective English Language Teachers	1912
Elyor A Pazilov	
Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari	1916
Ermatova Gullola Ziyod qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik-madaniy ko'nikmalarini shakllantirishda kognitiv texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	1919
Eshmo'minova Sitara Xayrullo qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyatini shakllantirishda tizimli-vaziyatli yondashuvning nazariy asoslari	1922
Gapparova Zilola Neymat qizi	
Raqamli ta'lim muhitida kreativ tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	1926
Hayitboyeva Zarina Otanazarovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallarni tushuntirishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish usullari.....	1930
Hojimamatova Jamila, Ahmedova Umidaxon Yodgorjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish	1933
Inobatxon Toshpo'latova	
4-sinf o'qish savodxonligi darsligidagi "Qarg'a va paxta" hikoyasi orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda savol va topshiriqlarning o'rni	1937
Jo'liboyeva Mahliyo Hamro qizi, Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi	
Mantiqiy tafakkur tushunchasi mohiyati.....	1941
Jo'rayev Shuhratbek Maxamadaliyevich	
Developing Tolerance Skills in Future Teachers During their Professional Training.....	1945
Joldasbaeva Arzigul Muratbaevna	
O'quvchilarda aksiologik yondashuvlar asosida empatik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	1948
Jumanov Erdavlet Sharifjon o'g'li	
Yo'l harakati xavfsizligi va uni maktabgacha ta'limda o'ziga xos xususiyatlarining ilmiy-metodologik asoslari	1952
Jumayev Yunus Rashidovich	
Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya berish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar.....	1959
Sayfullayev G'ulom Maxmudovich, Jurayeva Iroda Botirovna	
An'anaviy laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi	1964
Karimov Ilhom Normamatovich	
Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish	1969
Karimov Ravshanbek Rizomatovich	
Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning ahamiyati.....	1973
Kayumova Dilnoza Patxulla qizi	

Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning epistemik faolligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi.....	1978
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Chet tilini o'qitishda dars rejalashtirish modellarining qiyosiy tahlili.....	1982
Mahkamova Dilshoda Shuhrat qizi	
Yoshlar o'rtasida gemblinning psixologik omillari va oqibatlarini.....	1986
Melibayeva Ro'zaxon Nasirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishda ertakterapiyaning ahamiyati.....	1990
Murodova Farangis G'anisherovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ nutqlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari.....	1994
Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini muzey pedagogikasi vositasi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishning modeli.....	1997
Niyozov Javlonbek Jaxongir o'g'li	
Ingliz tilini o'rgatishda interrogativ vositalarning "MYTBT" moduli orqali ifodalanishi.....	2003
Normamatova Dilfuza Turdikulovna	
Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishning amaldagi holati.....	2008
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	
Maktabgacha 6–7 yosh bolalarda jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish.....	2011
Romanova Lola Karimbayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish.....	2014
Rustamova Gulmira Yoryigit qizi	
Ikkinchi tilni o'rganishda "Chaynovord" metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari.....	2018
Sadinov Oybek Ziyot o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish.....	2021
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha topshiriqlari asosida ESP kurslarini amaliyotga yo'naltirish va talabalarning kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirish.....	2024
Shermuxevedova Dilnozaxon Raximjanovna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi.....	2028
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Og'ir atletikachilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida portlovchi kuchni rivojlantirish samaradorligi.....	2031
Tojimatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi.....	2034
Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich	
Interfaol metodlardan foydalanib matematika darslari samaradorligini oshirish.....	2039
Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna, Nishonova Shahnozaxon Ro'zali qizi	
Maktabda fizika darslarida ekologik mazmundagi masalalardan foydalanish.....	2043
Tursunov Alisher Isoqovich, Erniyazova Shaxnoza Xurram qizi	
Taniqli kimyogar olimlarning ijodiy faoliyatini o'rgatish metodikasi.....	2046
Ubaydullayeva Navruza Ne'matovna	
Muhandislik kompetensiyalariga ega zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash.....	2050
Umarov Abdurasul Abduraximovich	
Talabalarda mediasavodxonlik fani asosida konseptual tahlil kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	2058
Umarov Xusanboy Rustamovich	
Pedagogical-Psychological Features of Forming Research Competences.....	2062
Usmanova Nargiza Kudratullayevna	
Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy salbiy oqibatlarini (yuridik va ijtimoiy-falsafiy tahlil).....	2065
Xaidarov Rahmatullo Ergashevich, Amirxo'jayev Shukurjon Qurbanovich	
Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni boshqarish tizimlari.....	2069
Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li	
Tez tibbiy yordam fanida stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning integrativ-metodik modeli.....	2073
Xasanov Kamoliddin Ulug'bek o'g'li	
Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	2080
Xayrullayeva Zebiniso Toxirovna	



Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
Xolmatova Elnura Sherali qizi	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati	2088
Xudoyqulova Shoiri Husanovna	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi	2091
Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise	2094
Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish	2098
Yuldasheva Dilshoda To'liqinova	
Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari	2102
Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish	2106
Yunusova Feruzaxon Xodjakbarovna	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasidagi ahamiyati	2109
Yunusova Xolidaxon To'liqinjon qizi	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari	2113
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	2116
Badalova Maqsuda Umarovna	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati	2119
Mirzanov Sherzod Sirliboyevich	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста	2123
Назарова Эльвира Наримановна	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей	2127
Шафига Тахирова	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения	2131
Эшанкулов Хамракул Маматкулович	

BIOLOGIYA TA'LIMIDA KONSEPTUAL MODELNI QO'LLASH VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Abdurasulova Gulrux Xabibullaevna

Andijon davlat tibbiyot instituti akademik litsey
biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya ta'limida konseptual modeldan foydalanish va uning samaradorligini baholash yoritildi. Tadqiqot davomida grafik modellar, blok-sxemalar va laboratoriya topshiriqlari kabi metodik yondashuvlar qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, konseptual modellar talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, biologik jarayonlarni modellashtirish orqali amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda reflektiv fikrlash va motivatsiyasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Maqolada pedagogik va biologik fan asosida konseptual yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berildi.

Kalit so'zlar: biologiya ta'limi, konseptual model, reflektiv fikrlash, amaliy ko'nikmalar, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article highlights the application of the conceptual model in biology education and evaluates its effectiveness. During the study, methodological approaches such as graphical models, block diagrams, and laboratory tasks were applied. The results showed that conceptual models positively influenced students by deepening theoretical knowledge, developing practical skills through modeling biological processes, and enhancing reflective thinking and motivation. The article substantiates the significance of the conceptual approach, based on pedagogical and biological sciences, in improving learning efficiency.

Key words: biology education, conceptual model, reflective thinking, practical skills, learning efficiency.

Аннотация: В данной статье рассмотрено использование концептуальной модели в обучении биологии и проведена оценка её эффективности. В ходе исследования применялись такие методические подходы, как графические модели, блок-схемы и лабораторные задания. Результаты показали, что концептуальные модели положительно влияют на учащихся: углубляют теоретические знания, развивают практические навыки через моделирование биологических процессов, а также повышают рефлексивное мышление и мотивацию. В статье обоснована значимость концептуального подхода, основанного на педагогических и биологических науках, для повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: обучение биологии, концептуальная модель, рефлексивное мышление, практические навыки, эффективность обучения.

KIRISH

So'nggi yillarda ta'limda innovatsion yondashuvlarni qo'llash dolzarb masalaga aylandi. An'anaviy yodlashga asoslangan metodlar biologiya ta'limida talabalar ongida fundamental tushunchalarning yuzaki shakllanishiga olib keladi. Shu bois konseptual yondashuvlar o'quv jarayoniga joriy etilmoqda. Ausubel ta'kidlaganidek, o'qitishning eng muhim vazifasi – yangi bilimlarni talabaning mavjud kognitiv tuzilmasi bilan bog'lashdir. Konseptual modellarning vazifasi ham aynan shu – murakkab biologik jarayonlarni talabalarning avvalgi bilimlari bilan integratsiya qilishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Novak va Gowin o'z tadqiqotlarida konseptual xaritalar va modellarning o'quvchilar tafakkurini faollashtirishdagi samaradorligini ko'rsatgan. Ularning fikricha, konseptual model bilimlarni izchil tartibga soluvchi va fanlararo bog'liqlikni ochib beruvchi vosita hisoblanadi. Shuningdek, Duit ta'limda konseptual o'zgarish nazariyasini ilgari surib, talabalar ilgari mavjud bo'lgan noto'g'ri tasavvurlarni faqatgina yangi konseptual model orqali to'g'rilashi mumkinligini asoslab bergan. Shu jihatdan, biologiya ta'limida konseptual model – bu biologik tushunchalarni tizimlashtirilgan tarzda ifodalovchi, fanlararo bog'lanishlarni ko'rsatib beruvchi didaktik vosita



hisoblanadi. Bunday model yordamida talabalar nazariy bilimni amaliyotga tatbiq etadi, reflektiv fikrlashni rivojlantiradi va murakkab biologik jarayonlarni yaxlit idrok etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – biologiya ta'limida konseptual modelni qo'llash va uning samaradorligini baholashdan iboratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchta oliy ta'lim muassasasida – Andijon davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti va Buxoro davlat tibbiyot institutida o'tkazildi. Umumiy 210 nafar talaba ikki guruhga bo'lindi. Eksperimental guruhda konseptual model asosida biologiya darslari olib borildi. Modelda biologik jarayonlar, masalan, hujayra bo'linishi, fotosintez va ekologik zanjirlar grafiklar, sxemalar hamda blok-chizmalar orqali taqdim etildi. Jonassen fikricha, konseptual modellar o'quvchilarga bilimlarni vizual tarzda tashkil etish va murakkab jarayonlarni osonroq anglash imkonini beradi. Nazorat guruhi esa an'anaviy ma'ruza va yozma konspekt usulida ta'lim oldi. Mayer ta'kidlaganidek, faol o'quv metodlari o'quvchilarni bilimlarni qayta ishlash va ularni amaliy kontekstlarda qo'llashga undaydi. Shu bois eksperimental va nazorat guruhlarini qiyoslash mazkur tadqiqotda muhim metodik yondashuv sifatida tanlandi. Baholash mezonlari sifatida uchta asosiy ko'rsatkich belgilandi. Birinchidan, nazariy bilim darajasi test savollari yordamida aniqlanib, Bloom taksonomiyasi asosida tahlil qilindi. Bloom ta'lim maqsadlarini darajalar bo'yicha tasniflab, bilim, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlarini ajratgan. Ikkinchidan, amaliy ko'nikmalar laboratoriya mashg'ulotlari va keys-stadi tahlillari orqali o'lchandi. Saverning fikricha, muammo asosida o'qitish o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirib, nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga yordam beradi. Uchinchidan, motivatsiya va reflektiv fikrlash darajasi anketalar hamda suhbatlar yordamida baholandi. Dewey reflektiv fikrlashni insonning tajribasi ustida ongli mulohaza yuritishi va kelajak faoliyati uchun xulosalar chiqarishi sifatida izohlagan. Mezirow esa refleksiyaning transformativ ta'limning asosiy mexanizmi sifatida ko'rsatgan.

1-jadval: Ta'lim maqsadlarini darajalar bo'yicha tasniflash

Guruhlar	Ta'lim yondashuvi	Qo'llanilgan metodlar / asosiy manbalar	Baholash mezonlari
Eksperimental guruh	Konseptual model asosida biologiya darslari	- Grafik modellar, sxemalar, blok-chizmalar (Jonassen, 1991) - Biologik jarayonlar: hujayra bo'linishi, fotosintez, ekologik zanjirlar	- Nazariy bilim (Bloom, 1956) - Amaliy ko'nikmalar (Savery, 2006) - Refleksiya (Dewey, 1933; Mezirow, 1997)
Nazorat guruhi	An'anaviy ta'lim (ma'ruza va yozma konspekt)	- O'qituvchi markazli usul - Reprodukativ o'qitish - Faol metodlar cheklangan (Mayer, 2002)	- Nazariy bilim (Bloom, 1956) - Amaliy topshiriqlar cheklangan

Olingan natijalarni tahlil qilishda Student t-mezonidan foydalanildi ($\alpha=0.05$). Ushbu metod ikki guruh natijalari o'rtasidagi farqlarni aniqlashda eng ishonchli statistik vositalardan biri hisoblanadi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, konseptual model asosida tashkil etilgan biologiya ta'limi an'anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq bo'ldi. Nazariy bilim darajasi bo'yicha eksperimental guruh talabalarining natijalari nazorat guruhiga qaraganda 18 foizga yuqori bo'ldi ($p<0.05$). Bu ko'rsatkich Bloom taksonomiyasi asosida tuzilgan testlar orqali aniqlanib, talabalar nafaqat bilim va tushunish bosqichlarida, balki tahlil va sintez darajasida ham yuqori faollik namoyon etganliklarini ko'rsatdi. Ushbu natijalar Mayer tomonidan ilgari surilgan faol o'qitish nazariyasiga mos keladi, ya'ni konseptual modellar bilimni shunchaki yodlash emas, balki mantiqiy ishlash va tushunchalarni tahlil qilish orqali o'zlashtirishni ta'minlaydi. Amaliy ko'nikmalarni baholash natijalariga ko'ra, eksperimental guruh talabalarining 65 foizi mustaqil tahlil va modellashtirish topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajargan bo'lsa, bu ko'rsatkich nazorat guruhida 42 foizni tashkil etdi. Keys-stadi va laboratoriya mashg'ulotlari orqali talabalar hujayra bo'linishi, fotosintez va ekologik zanjirlar kabi biologik jarayonlarni modellashtirish ko'nikmalarini egalladilar.

Ushbu natijalar Savery tomonidan ilgari surilgan muammo asosida o'qitish (PBL) yondashuvining samaradorligini tasdiqlaydi, chunki mazkur yondashuv talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yaqinlashtirib, ularda mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantiradi. Motivatsiya va reflektiv fikrlash jihatidan ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Anketalar va suhbatlar natijasida talabalar konseptual model asosida o'tilgan darslarni qiziqarli, mantiqan bog'langan va oson tushunarli deb baholadilar. Eksperimental guruh talabalarining o'z fikrlarini asoslab berishdagi faolligi oshgani Dewey tomonidan ta'riflangan reflektiv fikrlash jarayonining shakllanganini ko'rsatadi. Mezirowing ta'kidlashicha, refleksiya transformativ ta'limning asosiy mexanizmi bo'lib, u talabaning dunyoqarashini kengaytiradi va o'quv jarayoniga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari biologiya ta'limida konseptual modeldan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda motivatsiya va reflektiv fikrlash darajasini oshirishga




xizmat qilishini isbotladi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, pedagogik yondashuvlar – faol ta'lim, reflektiv fikrlash va keys-stadi metodlari – biologik fan metodlari bilan, ya'ni modellashtirish, tajriba va sxematik tasvirlash bilan uyg'unlashganda eng yuqori samaradorlikka erishish mumkin.



1-rasm: Eksperimental va nazorat guruhlar natijalari taqqoslanishi

Olingan natijalar biologiya ta'limida konseptual modeldan foydalanish samarali ekanini ko'rsatdi. Bu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki ularni vizual tasvirlar, sxemalar va modellar orqali tushunarli qiladi. Mayerning kognitiv yuk nazariyasiga ko'ra, axborotni grafik va diagrammalar yordamida berish talabaning xotira resurslaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Shu jihatdan, konseptual model murakkab biologik jarayonlarni oddiy va mantiqan bog'langan ko'rinishda taqdim etadi. Pedagogik nuqtai nazardan, konseptual modellar faol ta'lim metodlari bilan uyg'unlashadi. Jonassen ta'kidlaganidek, modellar bilimlarni konstruktiv tarzda shakllantirish va yangi bilimlarni mavjud bilimlar bilan integratsiya qilish imkonini beradi. Shuningdek, Savery tomonidan ilgari surilgan muammo asosida o'qitish (Problem-Based Learning) yondashuvi konseptual modellarning amaliy qo'llanishini kuchaytiradi, chunki talabalar real biologik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.



2-rasm: Konseptual modelning biologiyas ta'limidagi afzalliklari

Biologik fan nuqtai nazaridan qaranganda, konseptual model yordamida talabalar hujayra bo'linishi, DNK replikatsiyasi, fotosintez va ekologik zanjirlar kabi jarayonlarni dinamik tizim sifatida idrok etadilar. Driver va Asokoning tadqiqotlari ham shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar ilmiy tushunchalarni yaxlit tizim sifatida o'zlashtirganlarida, ularni amaliyotda qo'llash darajasi yuqoriroq bo'ladi. Muhokama natijalaridan yana bir muhim jihat shuki,



konseptual modellar reflektiv fikrlashni kuchaytiradi. Dewey refleksiyaning o'quvchi tajribasini ongli ravishda tahlil qilish jarayoni sifatida ta'riflagan bo'lsa, Mezirow uni transformativ ta'limning asosiy elementi sifatida ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida ham eksperimental guruh talabalarining o'z bilimlarini qayta ko'rib chiqishi, mantiqiy izoh berishi va yangi bilimlarni shaxsiy tajribaga bog'lash ko'nikmalari shakllandi.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini integratsiyalash konseptual modellar samaradorligini yanada oshiradi. Interaktiv simulyatsiyalar, 3D-modellar, virtual laboratoriyalar va AR/VR texnologiyalari biologik jarayonlarni nafaqat ko'rish, balki tajribaviy jihatdan his qilish imkonini beradi. Bu esa biologiya ta'limida tajribaga asoslangan o'rganishni kuchaytiradi va o'quvchilarni ilmiy izlanishga yo'naltiradi. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatdiki:

- 1) konseptual model biologik jarayonlarni yagona tizim sifatida idrok etishga yordam beradi;
- 2) pedagogik yondashuv sifatida u faol o'qitish, refleksiya va PBL metodlari bilan uyg'unlashadi;
- 3) raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilinsa, konseptual model talabalarning motivatsiyasi, tadqiqot ko'nikmalari va ilmiy dunyoqarashini yanada kuchaytiradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, biologiya ta'limida konseptual modeldan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda sezilarli natijalar berdi. Birinchidan, konseptual model talabalar bilimni chuqurlashtirishda samarali vosita bo'lib chiqdi. Bloom taksonomiyasi asosida o'tkazilgan baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar nafaqat bilim va tushunish darajasida, balki tahlil va sintez bosqichlarida ham yuqori natijalar ko'rsatdilar. Bu esa konseptual model nazariy bilimlarni tizimli va mantiqiy shaklda o'zlashtirishga xizmat qilishini isbotladi. Ikkinchidan, konseptual model laboratoriya mashg'ulotlari va keys-stadi yondashuvi orqali amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berdi. Talabalar biologik jarayonlarni – hujayra bo'linishi, DNK replikatsiyasi, fotosintez va ekologik zanjirlar kabi murakkab tizimlarni – mustaqil modellashtirish orqali nazariy bilimni real amaliyot bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bu yondashuv muammo asosida o'qitish (Problem-Based Learning, PBL) tamoyillariga mos keladi va talabalarda ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan tafakkurni shakllantiradi. Uchinchidan, konseptual model talabalarning motivatsiyasi va reflektiv fikrlashini oshirishga xizmat qildi. Dewey va Mezirow ta'riflaganidek, refleksiya ta'lim jarayonida o'z bilim va tajribasini qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Tadqiqotda ham eksperimental guruh talabalarining o'z fikrini asoslab berish, xulosalar chiqarish va bilimlarni yangi kontekstlarda qo'llash qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlanganligi kuzatildi. Shuningdek, konseptual modelni zamonaviy raqamli ta'lim resurslari – interaktiv simulyatsiyalar, 3D-modellar va AR/VR laboratoriyalar bilan integratsiyalash biologiya ta'limida yanada yuqori samaradorlikni ta'minlashi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, virtual simulyatsiyalar o'quvchilarning murakkab ilmiy tushunchalarni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Umuman olganda, biologiya ta'limida konseptual modeldan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtiradi, amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi va motivatsiya hamda reflektiv fikrlashni oshiradi. Bu esa talabalarning ta'lim jarayoniga ongli va faol yondashuvini ta'minlaydi. Shunday qilib, konseptual modelni biologiya ta'limiga keng joriy etish ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va ularni mustaqil o'rganishga yo'naltirishda muhim innovatsion yondashuv hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. Handbook I: Cognitive domain. New York: David McKay.
2. Dewey, J. (1933). How we think: A restatement of the relation of reflective thinking to the educative process. Boston: D.C. Heath.
3. Driver, R., & Asoko, H. (1994). Everyday reasoning and classroom learning. In P. Fensham, R. Gunstone & R. White (Eds.), The content of science (pp. 119–136). London: Falmer Press.
4. Jonassen, D. H. (1991). Objectivism vs. constructivism: Do we need a new philosophical paradigm? Educational Technology Research and Development, 39(3), 5–14. <https://doi.org/10.1007/BF02296434>
5. Mayer, R. E. (2002). Rote versus meaningful learning. Theory into Practice, 41(4), 226–232. https://doi.org/10.1207/s15430421tip4104_4
6. Mayer, R. E. (2009). Multimedia learning (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
7. Mezirow, J. (1997). Transformative learning: Theory to practice. New Directions for Adult and Continuing Education, 74, 5–12. <https://doi.org/10.1002/ace.7401>
8. Savery, J. R. (2006). Overview of problem-based learning: Definitions and distinctions. Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning, 1(1), 9–20. <https://doi.org/10.7771/1541-5015.1002>
9. Smetana, L. K., & Bell, R. L. (2012). Computer simulations to support science instruction and learning: A critical review of the literature. International Journal of Science Education, 34(9), 1337–1370. <https://doi.org/10.1080/09500693.2011.605182>
10. Student, W. S. (1908). The probable error of a mean. Biometrika, 6(1), 1–25. <https://doi.org/10.2307/2331554>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.